

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI  
QISQARTIRISH VAZIRLIGI**

quyidagi rahbarlik lavozimlariga tanlov e'lon qiladi:

- BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAK TABI DIREKTORI VA DIREKTOR  
O'RINBOSARI;**
- PROGNOZLASHTIRISH VA MAKROIQTISODIY TADQIQOTLAR INSTITUTINING  
DIREKTORI VA DIREKTOR O'RINBOSARI;**

**Nomzodlarga qo'yiladigan umumiyl talablar:**

- iqtisodiyot, moliya, bank sohasida, kapital bozorida, yoki shunga o'xshash sohalarda kamida 5 yil tajribaga ega (**faqat rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda**) shu jumladan kamida 2 yil rahbarlik lavozimlarida ishlagan bo'lishi;
- iqtisodiy nazariya va makroiqtisodiy sohasidagi bilimlar, shuningdek iqtisodiy tahlil qilish ko'nikmalar mavjudligi;
- kompyuter dasturlari bilan ishlash bo'yicha professional ko'nikmalar: (Microsoft Word, Excel va Power Point);
- bank-moliya, shuningdek iqtisodiy sohadagi asosiy qonun hujjatlari va ushbu sohadagi me'yoriy hujjatlar to'g'risida yaxshi ma'lumotga ega bo'lish;
- ishbilarmonlik muhiti va xalqaro reytinglarni yaxshilash va jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish sohasidagi umumiyl bilimlarga ega bo'lish;
- chet tillarini yaxshi bilishi (ingliz tili talab qilinadi), shuningdek, rasmiy ish yuritish ko'nikmalari.

Bo'sh ish o'rinalariga nomzodlarni tanlash jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi.

**1-bosqich:** joriy yilning 20-oktabrigacha yuqoridagi talablarga javob beradigan nomzod o'zining elektron pochtasi orqali ([Shdumanov@mineconomy.uz](mailto:Shdumanov@mineconomy.uz) yoki [Aruziqulova@mineconomy.uz](mailto:Aruziqulova@mineconomy.uz)) o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni (CV-ni Word formatida) yuborishi, shuningdek ushbu lavozimni tanlashni asoslab, insho yuborishi kerak. Shaxsiy ma'lumotlar va insholar ikki tilda (o'zbek va ingliz) tayyorlanishi kerak.

Nomzod haqidagi ma'lumotlar Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo'limi xodimlari tomonidan ko'rib chiqiladi. 1-bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar suhbatga taklif qilinadi, bu haqda ularga shaxsan telefon (faks, elektron pochta) orqali suhbat o'tkaziladigan joy, uning sanasi va vaqt haqida ma'lumot beriladi.

**2 bosqich:** 22-23 oktabr kunlari birinchi bosqichdan o'tgan nomzodlar bilan suhbatlar o'zbek, rus va ingliz tillarida o'tkaziladi. Suhbat natijalari shartli ravishda 100 ballik tizimda baholanadi (har biri 1 - 10 balldan iborat 10 mezon, minimal 1 ball, maksimal - 10).

**3 - bosqich:** Mas'ul shaxslar har bir nomzod uchun ballarni alohida ko'rib chiqadilar va hisoblaydilar, shundan so'ng tanlov natijalari e'lon qilinadi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo'limiga - [Shdumanov@mineconomy.uz](mailto:Shdumanov@mineconomy.uz) yoki [Aruziqulova@mineconomy.uz](mailto:Aruziqulova@mineconomy.uz) elektron pochta orqali yuborilishi kerak).

*Barcha kerakli hujjatlar (nomzod to'g'risidagi ma'lumotlar (CV) va insholar) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo'limiga - [Shdumanov@mineconomy.uz](mailto:Shdumanov@mineconomy.uz) yoki [Aruziqulova@mineconomy.uz](mailto:Aruziqulova@mineconomy.uz) elektron pochta orqali yuborilishi kerak.*

Qo'shimcha ma'lumot uchun telefon - **(+99871) 232-64-83**